

8-sinf adabiyot

1-CHSB

I variant

1. (B – 2). Nodira hayoti va ijodiga oid bo‘lgan ma’lumotni aniqlang.
 - A) Ijodkor o‘z ijodi davomida 400 dan ortiq she’r yozgan, shulardan 200 dan ortig‘ini ruboiy janri tashkil qiladi.
 - B) Shoir o‘z zamonasining “malik ul-kalomi”, ya’ni “so‘z mulkining podshohi” deya ulug‘lanadi.
 - C) Uning bizgacha ikkita devoni yetib kelgan bo‘lib, nisbatan to‘liq hisoblangan turkiy devoniga 189 ta g‘azal kiritilgan.
 - D) Yoshlik chog‘larida ellik ming bayt (yuz ming misra) she’rni yoddan bilgani haqida o‘z xotiralarida yozib qoldirgan.

2. (B – 2). Berilgan she’riy parchada qo‘llangan badiiy san’atni toping.

*Yo qoshingdin necha bir o‘q ko‘z tutay,
Otki, o‘rusig‘a oning ko‘z tutay.
Necha ko‘rgach o‘zga nahvashlar qoshin,
Yangi Oy ko‘rgan kishidek ko‘z tutay.*

 - A) tuyuq
 - B) irsoli masal
 - C) talmeh
 - D) tajnis

3. (B – 2). G‘afur G‘ulom hayoti va ijodiga oid to‘g‘ri ma’lumot berilgan qatorni toping.
 - A) Adibning buyuk mutafakkir Bobur ijodi va faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan jiddiy tadqiqotlari boburshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi.
 - B) Ijodkorning “Na’matak” she’ri erksizlik, tutqunlikka bo‘ysunmagan ijodkor ruhning, olamni qutqaruvchi go‘zallikning so‘nmas timsoli bo‘lib qoldi.
 - C) Shoirning urush yillarida yozilgan she’rlari jamlangan “Sharqdan kelayotirman” to‘plami uchun Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.
 - D) Shoir A.S.Pushkinning “Bog‘chasaroy fontani”, Lermontovning “Iblis” asarlarini o‘zbek tiliga mohirlik bilan tarjima qilgan.

4. (Q – 2,4). “Kuntug‘mish” dostoni qahramonlari yuzasidan bildirilgan to‘g‘ri hukmni toping.
 1. Mohiboy – bosiq, vazmin, aql bilan ish ko‘radigan bola.
 2. Gurkiboy – biroz shaddod, biroz quv yigit.
 3. Kuntug‘mish – yolg‘iz, erka o‘g‘il bo‘lishiga qaramasdan, aqlli, bilimli, jasoratli, elga g‘amxo‘r, xotini, bolalariga mehribon, vafodor yigit.
 4. Buvraxon – O‘ziga bino qo‘ygan, qahri qattiq bo‘lsa-da, ko‘ngilchanligi ham bor bo‘lgan podshoh.
 - A) 1, 2
 - B) 1, 3
 - C) 1, 2, 4
 - D) 3, 4

5. (Q – 2,4). “Kuntug‘mish” dostoni voqealari to‘g‘ri berilgan hukmni belgilang.
- A) Cho‘ponlar bo‘ri olib qochayotgan bolani hayotini saqlab qolishadi va unga Mohiboy deb ism qo‘yishadi.
- B) Bir kosa suv va bir non evaziga Kuntug‘mish buloqni egallab yotgan ajdarhoni o‘ldiradi.
- C) Azbarxo‘ja karvondagi insofli, diyonatli yigit yo‘l-yo‘lakay Kuntug‘mish uchun non, suv qo‘yib ketadi.
- D) Xolbeka va Kuntug‘mish birinchi marta bog‘da uchrashib qolishadi va uzuklarini almashishadi.

6. (Q – 2,4). “Kuntug‘mish” dostoni qahramoni Azbarxo‘ja obrazi haqida to‘g‘ri berilgan hukmni belgilang.

- A) Kuntug‘mishni Buvraxon zindonidan qutqargan bog‘bon.
- B) Xasis, razil, xudbin karvonboshi bo‘lib, do‘stiga xiyonat qilgan.
- C) Mohiboy va Gurkiboyni jallodlarning qo‘lidan qutqargan ovchi.
- D) Xolbekaning suratini chizgan zangarlik mashhur rassom.

7. (Q – 2,4). “Kuntug‘mish” dostoni voqealari to‘g‘ri izohlangan javobni toping.

- A) Xolbekani olib qochgan Kuntug‘mish Buvraxonning ayg‘oqchilari tomonidan qo‘lga olinadi va podshoh huzuriga bandi qilib olib borishadi.
- B) Kuntug‘mishning yo‘qligidan foydalanib, qushbegi Qoraxonni zindonband qilib, mamlakat boshqaruvini o‘z qo‘liga oladi.
- C) Kuntug‘mish va Xolbekani otning dumiga bog‘lab, cho‘lda tulupning ichida solishganda Qosim ularni ozod qiladi.
- D) Xolbeka sandiqqa o‘zining suratini, soch tolasini, uzuk va arz holi aks etgan maktubni joylab, sandiqni daryoga oqizadi.

8. (Q – 2,4). “Kuntug‘mish” dostonidagi qahramonlar va ularning ta‘rifini moslashtiring.

1. Xolmo‘min	O‘z jiyanlarini uyiga xizmatkorlikka olib kelib, ularga mehribonlik qiladi.
2. Qosim	Bu xudbin karvonboshi non va suv so‘rab kelgan Kuntug‘mishni quduqqa tashlab yuboradi. Xolbekani xiyla bilan olib ketib Buvraxonga topshiradi va mukofotlanadi.
3. Olim sayyod	Qatag‘anlik katta sayyod bo‘lib, farzandi yo‘qligi uchun Mohiboyni o‘z tarbiyasiga oladi.

- A) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri.
- B) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri 3-to‘g‘ri.
- C) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-to‘g‘ri.
- D) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri.

9. (Q – 2,4). Nodira qalamiga mansub g‘azal tahlili keltirilgan javob qatorini aniqlang.

- A) Ijodkor ko‘pni ko‘rgan donishmand, umr mazmunini anglagan faylasuf sifatida podshoh o‘g‘liga nasihatlar qiladi, davlat boshqaruvidan saboq beradi.
- B) Shoira dunyoni omonat binoga, bo‘yi, vafosi yo‘q gulshanga o‘xshatadi, inson unga ko‘ngil berib, aldanib qolmaslikka chaqiradi.

- C) Ishq-muhabbat insonlarni ne-ne kuylarga solishi mumkinligini bayon qilib, buning yorqin misoli sifatida Shayx San'on nomini tilga oladi.
- D) Oshiq shunday hastaki, tuzalish tugul unga jon asrash dushvor, negaki yorning jallod deya ta'riflangan qotil ko'zlari har lahza zulm ustiga zulm qiladi.

10. (Q – 2,4). G'afur G'ulomning "Vaqt" she'riga oid fikr keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Yangi yil kechasi o'zining qirq yoshini nishonlayotgan shoir o'ziga toladi, umrning har bir yilini bitta qasrga o'xshatadi.
- B) G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni kapalak umriga qiyoslagan shoir har bir soniyaning qadri haqida hayotiy misollar keltiradi.
- C) O'ta mavhum va tushunarsiz bo'lgan tuyg'u, ya'ni sevgi-muhabbatni shoir "Yorilmagan yara"ga qiyos etadi.
- D) Qishlog'iga qaytgan lirik qahramon vaqtning shamolday uchqur ekanligini, hali hech kim uni jilovlay olmaganini falsafiy qarashlar bilan bayon qiladi.

11. (Q – 2,4). G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'ri haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) She'rda najot so'rab to quyoshga qadar zorlangan otaga Bedil mutolaasi abadiy haqiqatlardan, o'lmas va yuksak tuyg'ulardan saboq berishi ifodalangan.
- B) Shoir sho'ro davlati qatag'oni qurboni bo'lgan, Sibir o'rmonlarida daraxt kesib umri chirigan Usmon Nosirni sog'inch bilan yodga oladi.
- C) O'z yurtiga qaytgan shoir mosh paykaldagi gala chunchuqlarni bir-biriga gal bermay she'r o'qiyotgan yosh shoirlarga o'xshatadi.
- D) Vatanga muhabbati cheksiz ekanligini ifodalab, Vatanni tomirlardagi qonga, jonlarning jononiga qiyoslaydi, vatan chaqirig'iga doim shay ekanligini eslatib o'tadi.

12. (Q – 2,4). Oybekning "O'zbekiston" she'riga oid tahlil keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Ko'ksi shahid o'g'lonlar bilan to'lgan Vataniga qayg'urib, "O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim" misralarini bitadi.
- B) Ko'p umrini chet elda o'tkazayotgan insonlar o'z ona yurtida o'tkazgan vaqtlarini qo'msashlari hayotiy misollar bilan dalillangan.
- C) O'sha vaqtlarda o'zbek xalqining fikrlashida, dunyoqarashida, ilm-u ma'rifatda o'zgarishga yuz tutganini "Elektron tekshiradi kechagi cho'pon" misrasi bilan isbotlaydi.
- D) O'zbek xalqining Katta urug'ning ustamonligi tufayli oldin qo'shniga, keyin do'stga, oxiri qulga aylanganligi haqida gapirib o'tadi.

13. (Q – 2,4). Oybekning "Na'matak" she'riga oid tahlil keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Shoir "Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul" misralari orqali yuksak tog' bag'rida nafis chayqalayotgan bir tup gulning mag'rur timsolini chizadi.
- B) Ushbu she'rda mustaqil O'zbekistonning gerbidagi tasvirni yodga soladigan "boshlar uzra soyalar solsun, Humo yetkur" misrasi o'rin olgan.
- C) Bahor faslida ham yuragida kuzning shamollari esayotgan shoir "Shu kunlarda bahorga zorman" misralarini bitadi.
- D) Ijodkor tabiat va inson haqida fikr bildirar ekan, ikkalasining uyg'unligi oliy butunlikni hosil qilishi haqidagi fikrlarini bayon qiladi.

14. (M – 5). Ushbu she'riy parcha mazmuniga mos mulohazalarni aniqlang.

G'alaba amri-la mag'lub nemisning

Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...

Shu mal'un imzoda odamlar o'qur

Million yil fashistning umriga la'nat.

1. Har qanday g'alaba yillar o'tgandan so'ng avlodlar xotirasidan, yodidan ko'tarilishi mumkinligiga ishora qilingan.
2. Parchada Ikkinchi jahon urushining tugash nuqtasi –taslim bo'lish akti tasvirlangan.
3. "Uch sekundlik imzo" orqali qisqa muddatda sodir bo'lgan tarixiy o'zgarishning, adolatning tantanasi aks ettirilgan.
4. Shoir fashizmga nisbatan bo'lgan nafrat va g'azabini ochiq va ta'sirli tarzda ifodalagan.
5. Urush davrida farzandini sog'ingan ota-onalarning iztiroblari, qayg'u-alamlari bayon qilingan.
6. G'alaba va fashizmning ustidan chiqarilgan hukmning mangu ekanligiga ishora bor.

A) 1, 2, 3, 6

B) 1, 2, 3, 5

C) 2, 3, 4, 6

D) 2, 3, 4, 5

15. (M – 5). Berilgan she'riy parcha yuzasidan bildirilgan to'g'ri mulohazani aniqlang.

Baski, qon bo'ldi yurokim gavhari ashk o'rnig'a,

Qatra-qatra ko'zlarimdin tom di marjon oqibat.

- A) Ko'zlarimdan oqqan yoshlar qatra-qatra bo'lmasligini xohlasang, qon yuragimga ko'z yoshi gavharini o'rnat.
- B) Yuragim gavhari ko'z yosh o'rniga qonga to'ldi, ko'zlarimdan qatra-qatra yosh tommasligi uchun oqibatingni bas qil.
- C) Bas qil, yuragim ko'zlaringni o'tli nuridan qonga to'ldi, oqibatda ko'zlarimda marjonlar qatra-qatra (qavat-qavat) bo'ldi.
- D) Bas, ko'z yoshi gavhari o'rniga yuragim qon bo'ldi, Oqibatda ko'zlarimdan qatra-qatra marjondek yosh tom di.